

---

**O`QUVCHILARGA CHET TILINI O`RGATISHDA YANGI  
INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

*Ibragimova Feruza Ravshanbek qizi*

*Andijon viloyati Andijon shahar*

*30-umumta`lim maktabi*

*Rus tili fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o`quvchilarga chet tilini o`rgatishda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari haqida so`z yuritilgan. Ta`lim texnologiyalari, bu ta`lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan umumli foydalanishdir. Shuningdek, ta`lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta`lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

**Kalit so`zlar:** til, innovatsiya, pedagogika, yangi pedagogik texnologiya, talaffuz, metodika, lug`at, kommunikatsiya.

**Abstract.** This article talks about the advantages of using new innovative pedagogical technologies in teaching students a foreign language. Educational technologies are effective use of modern information technologies in the educational process. It is also intended to increase the quality and efficiency of education by introducing modern innovative technologies into the educational process.

**Key words:** language, innovation, pedagogy, new pedagogical technology, pronunciation, methodology, vocabulary, communication.

**Абстракт.** В данной статье говорится о преимуществах использования новых инновационных педагогических технологий в обучении студентов иностранному языку. Образовательные технологии – это эффективное использование современных информационных технологий в образовательном процессе. Также предполагается повысить качество и

эффективность образования за счет внедрения в учебный процесс современных инновационных технологий.

**Ключевые слова:** язык, инновация, педагогика, новая педагогическая технология, произношение, методика, лексика, общение.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Yurtimizda chet tillarni o'qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda.

Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish

---

uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas.

Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

— kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

— chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

— ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish;

— CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Globalashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi.

Bugungi kunda innovatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiq qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi.

Ta'lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o'quvchilarga yetkazib berishda eng muhim vositalardan hisoblanadi. Bir mavzuni yoritishda bir necha xil grafik organayzerlardan foydalanish ham mumkin. Chet tilini o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so'zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali bular berilsa, yodda saqlanib qolishi ham oson bo'ladi. Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarning samaradorligi ularning ta'lim jarayonida to'g'ri va unumli foydalanilganidadir.

Axborot — kommunikatsion texnologiyalari barcha sohalar qatori ta'lim tizimiga ham izchillik bilan kirib kelmoqda. Jumladan, axborotlashtirilgan multimediali ta'lim texnologiyalarini ta'limga joriy etish orqali o'tiladigan fanlar mazmunini o'quvchilar ongiga to'liq va mukammal ravishda singdirish,

innovatsion vositalar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari ta'limda multimedia vositalaridan samarali foydalanishning o'ziga xos afzalliklari ham bor. Ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

- ta'limda ko'rgazmalilik eng asosiy o'rinlardan birini egallaydi;
- o'quvchini izlanishga undaydi;
- o'quvchi ta'lim jarayonini bir vaqtning o'zida ko'radi, uni eshitadi, o'quvchilarga kengroq qamrovdagi va kattaroq hajmdagi materiallarni tezroq yetkazib beriladi;
- o'quvchi tafakkurini faollashtiradi;
- o'quvchi faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi;
- mashg'ulotlarni jonli va muloqotli tarzda olib borishga imkoniyat tug'iladi;
- ta'lim mazmuniga tegishli materiallarni kompyuter xotirasida saqlab ularni o'quvchilarga xohlagan vaqtda yetkazish imkoniyati bo'ladi;
- o'z-o'zini namoyish etish imkoniyatini beradi, ta'lim mazmunini yoritishda animatsiyalardan foydalanishning keng imkoniyatlari yaratiladi. Shuning bilan birga, o'quvchi-yoshlarning ma'naviy tarbiyasi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, shu orqali jamiyat ma'naviyatini shakllantirishga erishish mumkin. Shuningdek, ta'limda axborot-kommunikatsion vositalaridan foydalanish jarayonida o'quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirib, uni mustahkamlab borish lozim.

Albatta bu ishlarni oiladan boshlash kerak, ya'ni oilada farzandlarimizdagi ma'naviy sifatlarni tarbiyalashdan boshlash zarur, chunki ularga berilgan tarbiya o'zlari bilan o'sib takomillashib boraveradi. Shuning uchun ham farzandlarimiz ma'naviyatini shakllantirish va uni yuksaltirishni avvalo oiladan, keyin esa bosqichma-bosqich uzluksiz ta'lim tizimida olib boriladi.

O'quvchilarga ma'naviy tarbiya berishni quyidagi uch yo'nalishda olib borgan ma'qul:

- O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishga ijobiy ta'sirlar.

- O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishga salbiy ta’sirlar va ularni bartaraf etish.
- O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishning multimediali ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va undan amaliyotda keng foydalanishga erishish.

Shuningdek, multimedia usuli ta’lim samaradorligini oshirishda quyidagi ta’limiy va tarbiyaviy afzalliklarga ega:

- axborotning xilma-xilligi: matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi;
- “Inson — kompyuter” interaktiv muloqotning yangi darajasi ancha keng bo‘ladi va undan har tomonlama axborotlarni oladi;
- o‘quvchilarga ta’lim olishda ijodiy munosabatni uyg‘otadi va bu o‘z navbatida ularga ishonchni shakllantiradi;
- o‘quvchilar tafakkurini faollashtiradi;
- o‘quv faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi;
- o‘z-o‘zini namoyish etish imkonini beradi;
- turli fikr va mulohazalarga diqqatni jalb qilishni o‘rganadi;
- yangi fikr-mulohazani bildirishga va o‘zlashtirishga ruhan tayyor bo‘ladi.

Bugungi kun o‘quvchisi, ularning orzu-intilishi, qiziqishlari orasida ham katta farq bor. Shundan kelib chiqib bugungi kun o‘qituvchisi nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida ro‘y berayotgan yangiliklardan vaqtida xabardor bo‘lishi, o‘z sohasiga doir zarur ilmiy yangiliklarni mehnat faoliyatiga tatbiq etishi, faqat darslikka tayanib qolmasdan, mavzu ko‘lamini o‘quvchilarga anglata bilishi, o‘z ustida tinmay izlanishi, o‘zida bor bilimlarni yanada kengaytira borishi lozim.

Donishmandlarimiz aytganidek: «O‘qitish — ikki barobar o‘qish demakdir». Demak, har bir o‘qituvchi-murabbiy bu o‘gitga amal qilar ekan, aslo kam bo‘lmaydi. Eng katta farq esa hozirgi kun o‘qituvchisining ish faoliyati innovatsion axborot texnologiya dunyosi, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni borligida. O‘qituvchilik kasbining

qator mas'uliyatlarini sanab o'tish mumkin. Bular qatoriga bola ruhiyatini o'rganish, undagi salbiy jihatlarga qarshi kurasha olish, o'quvchilari qalbida o'z faniga qiziqish uyg'otish barobarida Vatanga, oilaga, ota-onaga, do'stlariga nisbatan mehr-muhabbatli qila olish, har bir o'quvchining oilaviy sharoitini o'rganib, ota-onasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kabilarni kiritish mumkin.

Biz o'qituvchilar yosh avlod ongiga shakl beruvchi, ularni yuksak pog'onalarga olib chiquvchi sharafligini kasb egalari ekanligimizni ham unutmasligimiz kerak. O'qituvchi har bir inson uchun hayotda bilishi shart hisoblangan to'g'ri so'zlash, ifodali o'qish, o'z fikrini mustaqil bildira olish, og'zaki va yozma nutq hamda savodxonlikning imkon qadar yuqori darajasini egallashlarida ko'prik vazifasini bajaradi. Bu ham uning zimmasidagi mas'uliyatning bir ko'rinishidir.

O'qituvchi xalqi shunday xalqki, u har bir o'quvchisini o'z farzandidek qabul qiladi, uning yutug'idan to'libtoshib faxrlanadi, iztirobiga bab-baravar sherik bo'ladi. Ba'zi hollarda ayrim o'quvchilarning og'ir oilaviy sharoiti, ota-onasi qaramog'ida emasligi va bu uning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi, ba'zan bolalar tarbiyasi faqat maktabdagina nazorat ostida bo'lishi, bunday o'quvchilarning muntazam darslarda qatnashmasligi kabilarni o'qituvchilarimiz dilini xiralashtiradigan jihatlarni hisoblanadi, chunki o'qituvchi uchun bolaning begonasi bo'lmaydi, u barchasini o'z farzandidek ko'rib yashaydi...

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, ta'lim mazmunini boyitishga oid ishlarni muntazam ravishda olib borish lozim. O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda pedagogik omillarni ham ko'plab topsa bo'ladi. Ular ta'lim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga mustahkam didaktik asos bo'la oladi va ularni ta'lim mazmuniga ustalik bilan kiritish esa, o'ziga xos innovatsion jarayon bo'lib, bunda o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. — T.: RTM, 2000. — 46 b.

2. G'ulomova M. X., Sobirova N. K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari // Innovatsiya o'quv jarayonida (tezislar to'plami). –T.: 2009.– 106 b.
3. Андреевская-Левенстерн Л.С. Методика преподавания французского языка в средней школе: Учебное пособие. — М.: Просвещение, 1973. — 222 с.
4. Бабинская П.К., Леонтьева Т.П., Андреасян И.М., Будько А.Ф., Чепак И.В. Практический курс методики преподавания иностранных языков: Учебное пособие... . — Изд. 5-е. — М.: Тетра Системе, 2009. — 288 с.
5. Бим И.Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и теория школьного учебника. — М.: Русский язык, 1977. — 288 с..
6. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. — 2-е изд. — М.: АРКТИ, 2003. - 162 с.
7. Демьяненко М.Я., Лазаренко К.А., Кислая С.В. Основы общей методики обучения иностранным языкам: Теоретический курс/Под ред. М. Я. Демьяненко — Киев: Вища школа, 1976. - 282 с.
8. Джалалов Д. Д. Проблемы содержания обучения иностранному языку. — Т.: Фан, 1987. — 110 с.
9. Zaripova R.A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma, — T.: o'qituvchi, 1986. — 184 b.